

QO'SHMA GAPLARNI O'QITISH MAVZUSIGA OID METODIK TAVSIYALAR

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti

3-kurs 312-guruuh talabasi

Amitjonova Maftuna

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darsligida o'qitiladigan qo'shma gaplar mavzusi, qo'shma gap turlari, qo'shma gaplarni bog'lovchi vositalar haqida metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlari. Sintaksis, qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, sodda gap, teng bog'lovchi.

Qo'shma gaplar sintaksisini o'rghanish o'quvchi va talabalarning nutqiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, fikrni nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini, madaniy nutq malakalarini shakllantiradi.

Qo'shma gaplar ikki va undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik shakl va ohang asosida birikuvidan tuziladi. Uning tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan bog'lovchilar, yuklamalar, ko'makchilar va ohang orqali bog'lanadi.

O'zbek tilshunosligining so'nggi yillarida qo'liga kiriyan yutuqlariga tayangan holda qo'shma gaplarni 5 ga bo'lib o'rghanamiz:

1. Faqat ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar.
2. Yuklamalar yordamida bog'langan qo'shma gaplar.
3. Teng bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplar.
4. Ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplar.

5. Nisbiy so‘zlar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar¹.

“Sodda va qo‘shma gaplar” uchun muhim belgi kesimdir. “Kesimning nechtaligi gaplarni sodda va qo‘shma gaplarga ajratishga asos bo‘ladi.”² deyilgan. “Kesim – gap markazi” degan talqinni o‘quvchilar ongiga singdirmay turib qo‘shma gaplar tasnifini puxta o‘rganib bo‘lmaydi.”³

“Lisoniy struktura jihatidan qo‘shma gapning sodda gapdan farqi ma’lum darajada ravshan. Aniqrog‘i, sodda gapda shakllangan kesim bitta bo‘lsa, qo‘shma gapda u birdan ortiq boladi va birdan ortiq sodda gaplarning mazmun hamda grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topadi.”⁴

Qo‘shma gaplarning bog‘lovchisiz yoki grammatik vositalarsiz, faqat ohangdan tarkib topgan turi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardir. Masalan: **Bahor keldi, kunlar isiy boshladi. Ovqat pishdi, hamma dasturxon atrofiga yig‘ildi.**

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar sinonimiysi va uslubiyati ustida ijodiy-amaliy topshiriqlar bajarish jarayonida ikki nuqta yoki tirening ishlatalish sabablarini aniqlash; ohang bilan bog‘langan gaplardan foydalanib, ijodiy matnlar yaratish, mavzu yuzasidan egallangan BKMLarni mustahkamlash, ularni amaliyotda qo‘llab ko‘rish yaxshi natija beradi.

Qismlari teng bog‘lovchilar, **bo‘lsa, esa** so‘zlari, **-u (yu), -da** yuklamalari yordamida bog‘langan qo‘shmalar bog‘langan qo‘shma gaplar hisoblanadi⁵.

Bunda o‘quvchilarga badiiy matn berib, ushbu mant ichidan teng bog‘lovchilarni topish topsirig‘i beriladi.

Yuklamalar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar uchun qo‘shimch qilib, mustaqil ish sifatida **-mi, -u(yu), - da, -ku** kabi yuklamalardan qo‘shma gaplar tuzib kelish

¹ B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” 2006. 163 B.

² 9-sinf ona tili darsligi N.M. Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sh. Sobirov Toshkent- 2019. 17 B.

³ B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” 2006. 164 B.

⁴ R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” 2009. 391 B.


⁵ 9-sinf ona tili darsligi N.M. Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sh. Sobirov Toshkent- 2019. 26 B.

topshiriladi. Ushbu topshiriq yuzasidan o‘quvchilarning so‘z boyligini, fikrlashini, sodda gaplarni bog‘lay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Ergash gapli qo‘shma gaplarda har bir sodda gap mazmunan nisbiy mustaqildir. Bu sodda gaplar bosh gap yoki ergash gap bo‘lishidan qat’i nazar, bir-biriga mazmunan bog‘lanadi, bir-birini izohlaydi, aniqlaydi. Ergash gap bosh gapga ergashadi, bosh gap esa mustaqilday ko‘rinsa-da, ergash gap tomonidan izohlanadi. Masalan: **Yomg‘ir yog‘di, shuning uchun ko‘chalar loy bo‘ldi. Sen shunday yashaginki, hamma havas qilsin. Biz hozir yaxshi o‘qisak, yaxshi natijalarga erishamiz.**

Ergash gapli qo‘shma gaplar ichidagi sodda gaplardan biri ya’ni bosh gap mana shunday mustaqillikni saqlagan bo‘lak hisoblanadi, ikkinchisi ergash gapda esa bunday belgi kuchsizlangan bo‘lib, unda bosh gapni to‘ldirish, aniqlash, izohlash belgilari kuchli bo‘ladi.

Ergash gapli qo‘shma gap qismlari tobelanish (ergashish) yo‘li bilan tutashadi: bir qismi (bosh gap) tuzilishi, shakllanishi jihatidan mustaqil sodda gapga o‘xhash bo‘ladi va sintaktik jihatdan boshqa qismni (ergash gapni) yoki bir necha qismni o‘ziga tobe qiladi. Ergash gapli qo‘shma gap tarkibidagi qismlar o‘zaro tobellovchilar ergashtiruvchi bog‘lovchilar, so‘z shakllari va nisbiy so‘zlar vositasida birikadi.⁶



⁶ A. G‘ulomov. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent. 2012. 299 - 301 B.

Qayer- shu yer)

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar: bosh gap tarkibida **sabab** (**chunki, negaki, maqsad** (**toki**), **shart** (**agar, agarda, basharti, mobodo**) ergashtiruvchi bog‘lovchilar yordamida bog‘lanadi. *Odobli inson tabibga o‘xshaydi, chunki u bilan suhbatlashish ko‘ngildan g‘amni quvadi.*

Ko‘makchili so‘z qurilmalar: bosh gap tarkibida **shuning uchun, shu sababli, shu tufayli** sabab ma’nosida qo‘llaniladi. *Yozi bilan tinmay mehnat qildik, shu sababli hosil mo‘l bo‘ldi.*

Deb so‘zi: bosh gap tarkibida **maqsad** va **sabab** ma’nolarini ifodalab keladi. *Yovlar yo‘q bo‘lsin deb, yigitlar jang boshladi.*

-ki yuklamasi: bosh gap tarkibida **ko‘rsatish olmoshi** ma’nosini izohlash uchun qo‘llangan ergash gaplar bosh gapga -ki yuklamasi yordamida bog‘lanadi. *Shuni angladimki, inson qobiliyati cheksiz ekan.*

Nisbiy so‘zlar: ergash gap tarkibida **so‘roq olmoshlari**, bosh gap tarkibida unga javob bo‘lib keluvchi **olmoshlar biri ikkinchisini taqazo etganligi** uchun nisbiy so‘zlar hisoblanadi. *Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o‘shaniki bo‘ladi.*

Qo‘shma gaplar mavzusini quyidagi topshiriqlar asosida o‘quvchilarga o‘rgatish va bilimlarini mustahkamlash mumkin.

1-Topshiriq. Quyidagi ergash gapli qo‘shma gaplarni to‘ldirib yozing.

1. Agar … , sizni kutmaymiz.
2. Chunki … , ular rozi bo‘lishmadi.
3. … uchun, biz uni kechirdik.
4. Garchi … , u baribir ishtirok etdi.
5. … paytda, u yo‘q edi.

2-Topshiriq. Quyidagi gaplarni o‘qing va qaysi turdagи qo‘shma gapligini aniqlang.

1. Quyosh chiqdiyu, atrof yorishib ketdi.
2. U meni ko‘rdi va darrov xursand bo‘ldi.
3. Agar u kechiksa, biz kutmaymiz.
4. Kitobni o‘qidingmi yoki hali boshlamadingmi?
5. Men derazadan qaradim, shamol daraxtlarni tebratayotgan edi.

3-Topshiriq. Qo‘shma gaplarning barcha turi qatnashgan matn yarating. Topshirig‘I va uyga vazifasi berilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarga qoida yodlatish bilan birga uni hayotda ham qo‘llay olishga o‘rgatish, nutqini to‘g‘ri shakllantirish, mustaqil fikrini rivojlantirishi, so‘z boyligidan samarali foydalana olishiga diqqat qaratish va o‘rgatish kerak. So‘zlardan to‘g‘ri foydalana olishini va gaplarni bir biriga to‘g‘ri bog‘lay olishga o‘rgatish asosiy maqsad qilib oldik.

Foydalangan adabiyotlar

1. B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” 2006. 163-165 B.
2. 9-sinf ona tili darsligi N.M. Mahmudov, A. Nurmonov, A.Sh. Sobirov Toshkent- 2019. 17-26 B.
3. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbanova, Z. Yunusova, M. Abuzalova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” 2009. 391 B.
4. A. G‘ulomov. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent. 2012. 299 - 301 B.